



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№6

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

6-jild
6-son
Iyun, 2026

June, 2026
Volume 6
Number 6

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Menejment va marketing
Management and marketing
Менеджмент и маркетинг



TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELINI SAMARALI BOSHQARISHNING AHAMIYATI

Turayev Xizir Nazar o'g'li

ЗНАЧЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ КРЕДИТНЫМ ПОРТФЕЛЕМ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

Тураев Хизир Назар-угли

THE IMPORTANCE OF EFFECTIVE CREDIT PORTFOLIO MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS

Turayev Khizir Nazar oglu

Received: June 3, 2026 Revised: June 6, 2026 Accepted: June 9, 2026 Published: June 30, 2026

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklarining kredit portfeli samarali boshqarilishi masalalari bayon etilgan bo'lib, statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasida bank tizimini isloh qilish bo'yicha 2020-2025 yillarga mo'ljallangan strategiyada nazarda tutilgan kredit portfeli va risklarni boshqarish sifatini yaxshilash kabi ustuvor masalalarning ahamiyati izoglangan. Shuningdek maqolada bank tizimidagi kredit portfeli va muammoli kreditlar bilan ish olib borilishi hamda qonunchilik doirasida ko'rilyotgan chora-tadbirlarning analizi keltirilgan bo'lib, ushbu sohada kredit berish va qaytarib olish tizimining samarali faoliyatini ta'minlash borasida ba'zi tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, kredit qo'yilmalari, kredit portfeli, likvidlik koeffitsenti, bank balansi, bank aktivi, ssuda kapitali, risklarni boshqarish, bank tizimi

Аннотация: В данной статье на основе статистических данных описаны и проанализированы вопросы эффективного управления кредитным портфелем коммерческих банков. Отмечается важность таких приоритетных вопросов, как повышение качества кредитного портфеля и управления рисками, предусмотренных в Стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020-2025 годы. Также в статье дан анализ работы с кредитным портфелем и проблемными кредитами в банковской системе, и мерам, принимаемым в рамках законодательства, даны некоторые рекомендации по обеспечению эффективной работы системы кредитования и погашения. в этой области.

Ключевые слова: коммерческие банки, кредитные вложения, кредитный портфель, ликвидный коэффициент, банковский баланс, банковский актив, ссудный капитал, управление рисками, банковская система.

Annotation: In this article, the issues of effective management of the credit portfolio of commercial banks are described and analyzed based on statistical data. The importance of priority issues such as improving the quality of the credit portfolio and risk management provided for in the 2020-2025 strategy for the reform of the banking system in the Republic of Uzbekistan is noted. an analysis of the measures taken is presented, and some recommendations are given to ensure the effective operation of the lending and withdrawal system in this area.

Key words: commercial bank, loan deposits, loan portfolio, liquidity ratio, bank balance, bank asset, loan capital, risk management, banking system.

■ KIRISH

Bank tizimini samaradorligini oshirishda kredit operatsiyalari muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda tijorat banklari kredit operatsiyalari bank daromadlarini shakllantiruvchi faoliyat bo'lganligi sababli kredit portfelining sifat darajasining barqarorligini ta'minlash banklarning asosiy vazifalari sanaladi.

Kreditlash tijorat banklari uchun birlamchi ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat turi hisoblanadi, chunki tijorat banklari kredit portfeli sifatining pasayishi ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir qiladi, ya'ni muddati o'tgan kreditlarning kredit qo'yilmalari hajmidagi salmog'ining oshishi bankning likvidligini keskin pasayishiga olib keladi. Shuning uchun ham



tijorat banklari kredit portfelini samarali tarzda boshqarish xo'jalik subyektlarining kredit mablag'lariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Kelgusida ham bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish masalalari tarkibida bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish nazarda tutilgan. [1]

Respublikamizda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan bank kreditlari xajmining oshishi, ulardan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yurituvchi subyektlar miqdorining ko'payishi, banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish, ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z vaqtida undirib olishni ta'minlash vazifalari banklar kredit portfeli ustidan doimiy kuzatib borishni dolzarb masala ekanligini asoslab beradi. Kredit portfelidagi har bir kredit bo'yicha o'z vaqtida nazorat va nazorat natijasida muammoli kreditlarni qaytarish yoki konsul'tativ ko'rinishdagi ishlar olib borilsa, kredit portfelining risklilik darajasi kamayadi.

Kreditlar muammoli kreditlarga aylanmasdan ularni ta'minoti garovga olingan mulkni sotuvga qo'yish yoki kreditni kafolatlangan shaxslardan o'z majburiyatlarini bajarishini talab etishi kerak. [2] Bank kreditlaridan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdori ko'payishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish va ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z vaqtida undirib olishni ta'minlash banklar kredit portfeli ustidan doimiy nazorat qilib borish kuzatib borish muhurligini asoslaydi. Ayni paytda kredit portfeli va risklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmining mo'tadil o'sishiga amal qilish va kreditlashning faqat bozor shartlari asosida amalga oshirilishiga e'tibor berish alohida ta'kidlab o'tilgan. [3] Shunisi ahamiyatliki, ushbu strategiyada yetarli darajada xizmat ko'rsatilmayotgan va zaif qatlamlarda davlat ishtirokini kuchaytirish va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni keng joriy qilish, kamxarj xizmat ko'rsatish nuqtalari tarmog'ini rivojlantirish, shuningdek, respublika yagona moliya tizimining o'zaro to'ldiruvchi qismi sifatida nobank kredit tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali moliyaviy xizmatlar ommabopligini va sifatini oshirish bo'yicha olib boriladigan ishlar belgilab berilgan. Shuningdek, amalga oshirilayotgan bank tizimini xususiyalashtirish jarayonini jadallashtirish banklarning ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etish, ularning faoliyatini tijoratlashtirish, eng muhimi ishonchini oshirish orqali erkinlashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berganligi bank tizimining iqtisodiyotdagi ahamiyati muhim ekanligini ko'rsatib beradi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarish masalalari bir qator xorijiy olimlarning ilmiy

tadqiqotlarida o'rganilgan va kredit portfeli tushunchasini uning mohiyatiga berilgan ta'riflarda ifodalangan.

Shuningdek, N. Sokolinskaya-kredit portfeli qisqa va uzoq muddatli kreditlar yig'indisidan iborat deb ta'riflaydi va muammoli kreditlarni boshqarish masalasiga alohida to'xtalib o'tadi. Bu ta'rifda asosiy e'tibor kreditning muddatiga qaratilgan bu holat kredit holatini va mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Chunki, bank tomonidan berilgan kreditlarning muddatini belgilab qo'yilishi va unga rioya qilinishi faqat kredit klassifikatsiyasi sifatini aniqlashda muhim omil bo'lishi mumkin. Masalan amerikalik iqtisodchilar Kris J. Barlton, Diana Mak Noton kredit portfeli-bu kreditlarni turkumlashni o'z ichiga oladi deb ta'riflashadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham bu borada qator izlanishlarni olib borishgan, xususan, Sh. Z. Abdullaevaning fikriga ko'ra, banklarning muddati o'tgan kreditlari-bu turli xil kredit risklariga asoslangan muayyan mezonlarga qarab turkumlangan kreditlarning qaytarilishida yo'l qo'yilgan kamchiliklar bo'lib, asta sekin umumiy bank aktivlarining standart holatiga tasir qiladi deb aytadi. Uning turli shakllarida kreditning belgilangan qarzni kech to'lashi yoki to'liq to'lamasligi va bunda vaqt omilining suistemol qilinishi biz yuqorida so'z yuritayotgan masala obyekti bo'lib xizmat qiladi. Masalan: nemis iqtisodchi olimi V. Leksisning fikricha, kredit munosabatining yuzaga kelishi uchun qarz beruvchining ishonchi muhim ahamiyatga ega emas, bunda qarz beruvchilar qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatiga ishonchdan ko'ra, ishonchsizlik ruhiyatida bo'ladi va shuning uchun ham ular o'z manfaatlarining to'liq himoyasini ta'minlash uchun kafolat talab etadilar. V. Leksis ham o'z fikrida bir jihatdan xaq, chunki u alohida bir kredit munosabati haqida emas, balki kredit munosabatlarining yig'indisi haqida fikr bildiradi.

Tijorat banklarida eng ko'p daromad keltiruvchi operatsiyalarning asosiysi kreditlash operatsiyasidir. Shuning uchun ham mijoz va bank o'rtasida eng avvalo ishonch kredit munosabatining ajralmas qismi sifatida yuzaga kelishi kerak. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda ta'kidlash lozimki, kredit portfelini samarali tashkil etishda tijorat banklarining o'rnini yanada oshirish yuzasidan izlanishlar olib borilishini doimo dolzarb hisoblanadi.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda statistik jadval va ma'lumotlar, analitik taqqoslash, mantiqiy va taqqoslama tahlil hamda mavzuga oid xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqot ishlaridan keng foydalanilgan. Maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida umumiy iqtisodiy adabiyot hamda ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarish masalalari bo'yicha izlanishlari, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, va takliflar o'rin olgan.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Bankning kredit portfeli - bu bankning kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur asos sanalib, bank tomonidan berilgan jami kreditlarning yig'indisini o'zida ifodalaydi. Shuningdek, banklar



faoliyatida kredit operatsiyalari asosiy o'rinni egallagan uchun ularning kredit portfelini to'g'ri tashkil qilish banklarning samarali va barqaror faoliyat ko'rsatishi uchun imkoniyat yaratib beruvchi asosiy omillardan biridir.

Agarda tijorat bankida kredit operatsiyalarini olib borishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar mavjud bo'lsa banklar daromadining kamayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, banklarning kredit portfeli va uning sifatini nazorat qilib borish tijorat banklari samarali faoliyatini belgilaydi. Tijorat banklarida kredit portfelini boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari yuzasidan izlanishlar olib borilishini doimo dolzarb deb hisoblaymiz.

Kredit portfelini tijorat banklarida samarali boshqarishning pirovard maqsadi ushbu portfelning risk, daromadlilik va likvidlilik ko'rsatkichlarining optimal darajasiga erishish hisoblanadi. Tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarishda bir qator omillar mavjud bo'lib, ularning ayrimlari quyidagilardan iborat:

- tijorat banklarida aktivlar sifati ustidan monitoring olib borish natijasida bank aktivlari bilan bog'liq muammoli holatlarni dastlabki bosqichlarda aniqlab ularni bartaraf etish mexanizmini mustahkamlash;

- tijorat banklarda aktivlarni diversifikatsiya qilib boorish va kredit portfelini sog'lomlashtirish orqali

tavakkalchiliklarni samarali boshqarishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

- kredit munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar ijrosini tashkil qilish asosida kreditlash jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan risklarni baholash, o'rganish, ularni tahlil qilish, biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilishini nazorat qilish;

- muammoli kreditlarni boshqarishning yangi usullarini shakllantirish;

- kredit portfelida yaxshi kreditlar ulushi 90 foizdan kam bo'lmasligi, muddati o'tgan kreditlar miqdorini minimallashtirish, kredit portfeli tarkibining tasdiqlangan kredit siyosatiga amal qilishini nazorat qilish kabilarda namoyon bo'ladi.

Tijorat banklarining kreditlash amaliyotida kreditlashning zamonaviy usullarini qo'llash banklar va mijozlar uchun quyidagi ijobiy jihatlarni ta'minlaydi: banklar jalb qilingan va o'z mablag'laridan samarali foydalanadi; tijorat banklari mijozlari mablag'larini bank talabiga ko'ra kreditni qaytarishga yo'naltirish mumkin; kredit hujjatlarini rasmiylashtirish tezkor va kredit olish imkoniyatlari yuqori; ushbu kreditlash shakllarining ko'p maqsadlilik ishlab chiqarish korxonalarining aylanma mablag'larini aylanishini tezlashtiradi va ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlaydi. Mijozlar foydalangan kredit miqdori va muddatiga muvofiq foiz to'lovlarni to'laydi; kreditlash jarayonida resurslardan samarali foydalanish bilan birga, bank likvidlilikini ta'minlaydi va boshqaradi.

1-jadval

Tijorat banklari kredit qo'yilmalarining tarmoqlar bo'yicha ulushi [4]

Ko'rsatkichlar nomi	1/1/2023		1/1/2024		O'zgarishi, foizda
	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda	
Jami kreditlar	326,386	100%	390,049	100%	19.5%
Sanoat	117,639	36.0%	126,647	32.5%	7.7%
Qishloq xo'jaligi	35,022	10.7%	42,096	10.8%	20.2%
Qurilish sohasi	9,282	2.8%	10,400	2.7%	12.0%
Savdo va umumiy xizmat	27,406	8.4%	28,911	7.4%	5.5%
Transport va kommunikatsiya	28,708	8.8%	29,673	7.6%	3.4%
Moddiy va texnik ta'minotni rivojlantirish	3,814	1.2%	3,856	1.0%	1.1%
Uy-joy kommunal xizmati	2,284	0.7%	1,888	0.5%	-17.3%
Jismoniy shaxslar	69,496	21.3%	100,949	25.9%	45.3%
Boshqa sohalar	32,734	10.0%	45,630	11.7%	39.4%

Yuqoridagi 1-jadvalda keltirib o'tilgan 2023-2024 yillik statistik ma'lumotlar tahlili asosida shuni aytish mumkinki, ma'lumotlariga asoslanib aytish mumkinki, tijorat banklarining kredit qo'yilmalarining tarmoqlar bo'yicha ulushi 2023 yilsanoatda 01-yanvar holatiga ko'ra 117,639 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yil 01-yanvar holatiga ko'ra 126,647 mlrd so'mni

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

tashkil etgan bo'lib, 2024 yilda 2023 yilga nisbatan 7,7 % ga o'zgargan. Qishloq xo'jaligi sohasida esa 2023 yil 01-yanvar holatiga ko'ra 35,022 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yil 01-yanvar holatiga ko'ra 42,096 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, 2024 yilda 2023 yilga nisbatan 20,2% ga o'zgargan. Xususan, jismoniy shaxslarning kredit qo'yilmalari 2023 yil 01-yanvar



holati bo'yicha 69,496 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yil 01-yanvar holati bo'yicha 100,949 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, 2024 yilda 2023 yilga nisbatan 45,3% ga o'zgargan. Bank aktiv operatsiyalari ichida kredit asosiy o'rinni egallaydi va bank daromadining salmoqli qismi ham aynan mazkur operatsiyalar orqali olinadi. Shu sababli bank kredit portfelining qanday shakllanishi bank faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bank kredit portfelini samarali boshqarishi uchun, eng avvalo banklarning kreditlash jarayoni to'g'ri tashkil qilinishi zarur. Amaldagi qonunchilikda bank kredit portfeli muntazam ravishda tahlil va audit qilinishi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bunda kredit sifatini aniqlash bilan bir qatorda kreditlash jarayonini boshqarish sifatini baholash, jumladan, tasdiqlangan kredit siyosatiga va kredit hujjatlarini rasmiylashtirish jarayonlariga, garovni rasmiylashtirish va baholash, kreditlashga doir vakolatlarni taqsimlash, qonunchilik me'yorlariga rioya qilishga muvofiqligini ta'minlashga e'tibor qaratilishi lozim. Shuningdek, respublikamizda bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilishni ta'minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda ta'kidlash lozimki, tijorat banklari kredit portfelini samarali boshqarishning asosiy maqsadi kredit portfelning risk, daromadlilik va likvidlilik ko'rsatkichlarining optimal darajasiga erishish hisoblanadi. Umuman olganda, tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarish bo'yicha quyidagi takliflar keltirib o'tamiz.

- bank aktivlari sifati ustidan doimiy, ta'sirchan monitoring olib borish, bank aktivlari bilan bog'liq muammoli holatlarni dastlabki bosqichlarda aniqlash va bartaraf etish mexanizmini mustahkamlash;

- banklarda aktivlarni keng diversifikatsiya qilish, kredit portfelini sog'lomlashtirish orqali tavakkalchiliklarni samarali boshqarishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib ularga zarur o'zgartirishlar kiritib borish;

- bank tizimiga oid qabul qilingan qarorlar hamda kredit munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar ijrosini tashkil qilish asosida kreditlash jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni baholash, o'rganish, ularni tahlil qilish, biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilishini nazorat qilish; muammoli kreditlarni boshqarishning yangi usullarini shakllantirish;

Xususan, aktivlar sifatini ta'minlashni nazorat qilish, bunda kredit portfelida yaxshi kreditlar ulushi 90 foizdan kam bo'lmasligi, muddati o'tgan kreditlar miqdorini minimallashtirish, kredit portfeli tarkibining tasdiqlangan kredit siyosatiga amal qilib borilishi ijobiy natijani keltirib chiqaradi.

Respublikamiz tijorat banklari amaliyotida mijozlarning kreditga layoqatligini baholashda

muammolarni mavjudligi kredit portfeli sifatiga va uning barqaror o'sishiga salbiy ta'sir qilmoqda. Mijozning kredit to'loviga layoqatligining to'g'ri baholanishi kreditlarning o'z vaqtida to'la qaytishini ta'minlaydi. Sifatli kredit portfelini shakllantirish va kredit monitoringini puxta tashkil etish va olib borish lozim. Kreditlash operatsiyalarining hajmi ko'lamdorligi bilan birgalikda ularning risklilik darajasi oshib ketmasligi va sifatining yuqori bo'lishi ham lozim. Agarda bank kreditlarining sezilarli darajada kata qismi bir sohada to'planadigan bo'lsa, bu sohadagi salbiy o'zgarishlar kreditning qaytmasligiga, bu esa, o'z navbatida, bank foydasi tushishiga olib keladi. Tijorat banklari sifatli kredit portfelini shakllantirish uchun avvalambor kreditlash jarayonini to'g'ri va sifatli olib borishi zarur. Kreditlar ajratish borasida qarorlar qabul qilishda banklarning kredit qo'mitalari va mas'ul xodimlarining javobgarligini oshirish, kreditlardan foydalanish va qaytarilishi monitoringining mexanizmlarini bir xillashtirish, ular bo'yicha risklarni o'z vaqtida aniqlash, sifatli baholash va bartaraf etish, shuningdek, kreditlar bo'yicha muammoli qarzdorliklarni paydo bo'lishini oldini oluvchi choralar qabul qilish orqali tijorat banklarining kreditlash operatsiyalarini samarali tashkil etish va yuqorida berilgan barcha tavsiyalarni imkon qadar amaliyotga joriy etgan holda ularni takomillashtirish mumkin deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrda "O'zbekiston-2030 Strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.PF-158-son

2. Z.Mamadiyurov, M.Maxmudova, M.Kurbonbekova. Bank ishi. Darslik. T.:Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. 2021 yil. 158 bet.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

4. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Turayev Xizir Nazar o'g'li Qarshi davlat texnika universiteti "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida stajyor-o'qituvchisi / Тураев Хизир Назар-угли Каршинский государственный технический университет Преподаватель-стажер кафедры «Бухгалтерский учет и аудит» / Turayev Khizir Nazar oglu Karshi State Technical University Trainee-teacher of the Department of "Accounting and Auditing"

E-mail: turaevkhizir@mail.ru

ORCID: 0009-0001-0003-8450



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz